

KONSTITUTSIYA-ASOSIY QOMUS SIFATIDA

Navoiy davlat universiteti

3-bosqich talabasi Sevinch Mardonova

Ilmiy rahbar: “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari huquq ta’limi”

kafedrası o’qituvchisi Abduraimova M.B.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga oid o’zgarishlar, islohotlar tog’risida fikr bildirilgan. Davlat-jamiat- fuqaro tushunchalari, qonun ustuvorligi masalalari haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so’zlar: Konstitutsiya, ekspertlar, Xabeas korpus, davlat, jamiyat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishidan maqsad fuqarolarning huquq va erkinliklarini davlatning bosh qomusida ko‘rsatilgan normalar asosida ta'minlash hamda davlatning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar yotadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilishda, umumxalq muhokamasi jarayonida aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushganligi ham fuqarolari ushbu masalaga juda katta qiziqish va e'tibor bilan yondashganligidan yaqqol dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustida ishlashda senatorlari ham faol ishtirok etdilar. Xususan, 19 nafar senatorlar Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustidagi ishlarda bevosita qatnashdilar.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasida, yetuk olimlar, jamoatchilik, xalqaro va xorijiy ekspertlar ishtirokidagi muhokamalarda har tomonlama tahlil qilindi va maromiga yetkazildi. Xususan, loyihani tayyorlashda va takomillashtirishda 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin mamlakatlar konstitutsiyalari puxta o‘rganildi, xalqaro ekspert va mutaxassislar ishtirokida bir

necha bor muhokama qilindi, shuningdek, respublikaning turli hududlarida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida jami 20 mingga yaqin muhokamalar tashkil etildi.

Asosiy Qomusda mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, yurtning va xalqning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatlar o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston "huquqiy davlat" degan konstitutsiyaviy tamoyil muhrlandi.

Bu barchaning qonun oldida tengligini va qonundan xech kim ustun emasligini ta'minlash, sudlar tomonidan adolatli qarorlar qabul qilish, umuman olganda davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ilgari amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyilini "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirish, ya'ni eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo'yishni maqsad qilgan.

Xususan, unda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilanmoqda va shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari jiddiy ravishda kuchaytirildi.

Konstitutsiyaga asosan insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir, hyech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilandi.

Shuningdek, har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga egaligi, qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga uning roziligisiz yuklatilishi, O'zbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi mumkin emasligi belgilandi.

Jinoyat protsessida inson huquqlari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi, xususan, Konstitutsiyada shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ("Xabeas korpus" instituti) hamda

shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda qoidalar") belgilandi.

Ushbu huquqiy kafolatlar inson huquqlarini muhofazasini kuchaytirish sohasidagi ishlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi hamda ularni davlat organlarining suiste'molliklaridan ishonchli himoya qiladi, shaxsiy erkinlik daxlsizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Mazkur Konstitutsiya haqiqatdan ham Xalq Konstitutsiyasi bo'ldi. Unda aholining barcha qatlamlari, shu jumladan ayollar, nuroniylar, bolalar, yoshlar, nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, xorijdagi vatandoshlari, hattoki mahkumlar– barcha barchasini huquq va manfaatlari hisobga olindi.

Ta'lim-tarbiya tizimi va imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda – ilk marotaba ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etilishi, oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olish imkoniyati berilishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi hamda, eng muhimi, aziz o'qituvchilari sha'ni va qadr-qimmati himoya qilinishi belgilanmoqda. Ushbu normalar taraqqiyot uchun muhim omil bo'lgan ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, yoshlarning bilim olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratishda jiddiy turtki bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va bugungi kun talablariga moslashtirish masalalari ham o'rin oldi, xususan, davlat hokimiyatining bir qator lavozimlariga nisbatan ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ushbu lavozimga saylanishi (tayinlanishi) mumkin emasligiga oid demokratik qoida kiritildi, bular: Qonunchilik palatasi Spikeri; Senat Raisi; viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi; hokim; Oliy sudning raisi va rais o'rinbosari; Sudyalar oliy kengashining raisi va rais o'rinbosari; Markaziy saylov komissiyaning raisi; Bosh prokuror lavozimlaridir. Mana shu yuqorida sanab o'tilgan lavozimdagi mansabdor shaxslar surunkasiga ikki muddatdan ortiq aynan bir lavozimda bo'lmaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyada parlament vakolatlarini kuchaytirishga alohida ahamiyat qaratildi. jumladan, agar avvalgi Konstitutsiya bo'yicha Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta bo'lgan bo'lsa, yangisida ularning soni 12 ta bo'ldi, Senatning mutlaq vakolatlari amaldagi 14 tadan 18 taga oshirildi, Prezidentning ijro va sud hokimiyati tizimini shakllantirish sohasidagi amaldagi ayrim vakolatlari parlamentga berildi.

Ushbu normalar hokimiyat organlari mas'uliyat chegarasini aniq belgilashga, o'zaro hamkorlik mexanizmlarini optimallashtirishga, faoliyati samaradorligini oshirishga hamda parlamentning bugungi davrga mos, tom ma'noda xalqchil organga aylanishiga xizmat qiladi.

Maxsus xizmatlar ustidan Senat vakolatini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga Prezident tomonidan tavsiya etilgan nomzod bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish va shundan so'ng nomzodni Prezident tomonidan tayinlash tartibi o'rnatildi.

Bundan tashqari, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalari oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimini kiritildi.

Mazkur yo'nalishdagi yana bir konseptual o'zgarishlardan biri bu – Senat tarkibini ixchamlashtirish orqali uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida senatorlar soni amaldagi 100 tadan 65 taga o'zgartirildi.

Yana bir muhim masala, Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq, ilg'or xorijiy tajriba inobatga olinib, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash vakolati Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o'tkazildi, qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin Prezident Bosh vazirni lavozimga tayinlaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilinib, to'g'ridan-to'g'ri amalga kiritiladigan birinchi hujjat bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bosh qomusiga kiritilgan barcha o'zgarishlar bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy iqtisodiy hayotini barkamollashtirish hamda ularning huquqiy jihatdan ong-taffakkurini boyitish

shuningdek ilm-fan sohasini taraqqiyot darajasida rivojlantirish bundan tashqari gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarni huquqlarini samarali himoya qilish uchun alohida “Advokatura” bobi kiritilishi shu bilan bir qatorda shaxsning aybi sudning hukmi bilan qonuniy kuchga kirguniga qadar shaxsning aybsiz hisoblanishi kabi o‘zgarishlar kiritilganligi ham ayni muddao bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi